



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI
QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI

CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-dekabr*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. (75)-221-44-28*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-dekabr oyi, foizda)




2025- yil 1-yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 6074 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 20 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 6054 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-dekabr, mlrd. so'mda)



So'nggi 5 yillik (2020- 2024- yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 112,5 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, oylar kesimida (2023- 2024- yillar)



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida o'sish sur'ati **109,0** % ni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-dekabr oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 26071,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 109,0 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1146,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 97,3%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 22151,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 109,0%), jumladan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2773,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 109,0 %) tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2024- yil yanvar-dekabr oyi)

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-dekabr oyiga nisbatan,% da
Qashqadaryo viloyati	26071,1	109,0
Qarshi sh.	6 056,5	113,6
Shahrisabz sh.	1 822,1	106,9
G'uzor	824,8	109,1
Dehqonobod	682,5	104,8
Qamashi	1 549,3	106,5
Qarshi	1 064,2	118,0
Koson	1 848,5	108,4
Kitob	1 129,8	108,3
Mirishkor	844,5	108,3
Muborak	548,8	117,5
Nishon	787,6	109,5
Kasbi	838,8	108,3
Ko'kdala	464,2	103,3
Chiroqchi	1 156,8	107,3
Shahrisabz	661,0	107,4
Yakkabog'	1 081,6	104,3

2024- yilning yanvar-dekabr oyida 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan viloyatning Qarshi tumani (118,0 %), Muborak (117,5%) Qarshi shahri (113,6 %), Nishon (109,5 %) va G'uzor tumanlarida (109,1 %), chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi (Ulushi, foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Qarshi shahri 25,9 % bilan 6746,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Muborak tumani 2,6 % bilan 685,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.



Hajmi, mlrd. so'm

Qarshi sh.	6746,3
Koson	2097,8
Chiroqchi	2005,6
Shahrisabz sh.	1965,4
Qamashi	1762,9
Kitob	1312,7
Yakkabog'	1238,9
Qarshi	1127,4
G'uzor	1028,1
Nishon	947,8
Kasbi	922,3
Shahrisabz	886,9
Mirishkor	874,0
Ko'kdala	795,9
Dehqonobod	775,1
Muborak	685,2

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-dekabr oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 22151,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 9,0 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 85,0 % ni tashkil etdi.

108,4 %

Koson

109,1 %

G'uzor

109,5 %

Nishon

113,6 %

Qarshi sh.

117,5 %

Muborak

118,0 %

Qarshi

Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 2,7 % ga kamaydi va 1146,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 4,4 % ulushiga to'g'ri keldi.

123,0 %

Koson

151,1 %

Kitob

146,2 %

Shahrisabz

146,9 %

Kitob

156,9 %

Ko'kdala

178,0 %

G'uzor


2,6 m.

Shahrisabz sh.



2013 2014 2015 2016 2017 2018 2019 2020


CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga koʻra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi boʻyicha Muborak (99,5 %), Mirishkor (99,3 %), Nishon (99,2 %), Qamashi (99,1 %), Kasbi (99,1 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 4,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Shahrisabz tumani va (15,7 %) Qarshi shahrida (6,8 %), Koʻkdala (6,7 %) va Koson tumanlarida (6,0 %) kuzatildi.



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*)

Qarshi sh.	22623,4	Kasbi	4281,7
Shahrisabz sh.	13217,4	Ko'kdala	4154,2
G'uzor	4577,6	Chiroqchi	7395,3
Dehqonobod	4811,0	Shahrisabz	3739,0
Qamashi	5945,6	Yakkabog'	4341,0
Qarshi	4087,7		
Koson	6644,9		
Kitob	4609,2		
Mirishkor	6676,6		
Muborak	7266,4		
Nishon	5621,4		

2024- yilning yanvar-dekabr oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 7242,0 ming so'm (2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 106,6 %)ni tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Qarshi (22623,4 ming so'm) va Shahrisabz shaharlari (13217,4 ming so'm) hamda Chiroqchi tumani (7395,3 ming so'm) hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-dekabr), foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


**Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2024- yil yanvar-dekabr)**

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda
Qashqadaryo viloyati	2 773,6	109,0
Qarshi sh.	232,9	115,1
Shahrisabz sh.	78,8	107,7
G'uzor	155,4	102,6
Dehqonobod	84,6	105,5
Qamashi	197,6	111,9
Qarshi	49,4	106,4
Koson	124,2	105,6
Kitob	158,0	110,2
Mirishkor	23,0	101,9
Muborak	133,3	113,5
Nishon	152,9	106,7
Kasbi	74,5	105,1
Ko'kdala	278,5	111,2
Chiroqchi	800,9	109,3
Shahrisabz	86,9	106,6
Yakkabog'	142,7	106,9


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar
aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda
(2024- yil yanvar-dekabr)**















**Hududlar kesimida uyushmagan
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm
(2024- yil yanvar-dekabr)**



Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2773,6 mlrd.so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 109,0% ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) , (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 1361,8 mlrd. so'mni (105,5%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 1411,8 mlrd. so'mni tashkil etdi (112,7 %).












2024-yilning yanvar-dekabr oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1361,8 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (662,7 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 735,5 mlrd. so'm  54,0 %	Non va non mahsulotlari 220,6 mlrd. so'm  16,2 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 66,7 mlrd. so'm  4,9 %
Tovuq go'shti 91,2 mlrd. so'm  6,7 %	Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 38,1 mlrd. so'm  2,8 %	Tuxum 39,5 mlrd. so'm  2,9 %
Ziravorlar 65,4 mlrd. so'm  4,8 %	Sut va sut mahsulotlari 42,2 mlrd. so'm  3,1 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 13,6 mlrd. so'm  1,0 %
Tuzlamalar 30,0 mlrd. so'm  2,2 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 2,7 mlrd. so'm  0,2 %	Nooziq-ovqat tovarlar 16,3 mlrd. so'm  1,2 %

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1411,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 971,3 mlrd. so'm, qo'y va echkilar – 378,4 mlrd. so'mni, otlar – 55,1 mlrd. so'mni, parrandalar – 7,0 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari va parrandalar savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>625,4 mlrd. so'm</p>  <p>44,4 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>266,8 mlrd. so'm</p>  <p>19,0 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>79,1 mlrd. so'm</p>  <p>5,6 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>223,1 mlrd. so'm</p>  <p>15,6 %</p>	<p>Otlar</p> <p>55,1 mlrd. so'm</p>  <p>3,9 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>155,3 mlrd. so'm</p>  <p>11,0 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>1,4 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>5,6 mlrd. so'm</p>  <p>0,4 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0 %</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2025- yil 1- yanvar holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1397 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1395 tani tashkil qildi.

Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-dekabr)

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	17645,1	109,3
Qarshi sh.	255,6	106,5
Shahrisabz sh.	52,3	111,4
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	27,3	98,6
Dehqonobod	14,8	103,6
Qamashi	15,6	111,5
Qarshi	44,6	135,7
Koson	27,7	110,6
Kitob	64,6	105,0
Mirishkor	9,4	105,9
Muborak	38,4	154,3
Nishon	65,7	105,4
Kasbi	14,5	102,9
Ko'kdala	13,2	109,5
Chiroqchi	26,4	104,4
Shahrisabz	20,0	121,6
Yakkabog'	22,8	104,9

2024- yilning yanvar-dekabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 17645,1 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 109,3% ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 94,3 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Viloyat bo'yicha	3542,1	98,9
Qarshi sh.	3108,4	96,1
Shahrisabz sh.	13,0	130,6
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	3,8	158,5
Dehqonobod	6,9	135,4
Qamashi	2,1	165,3
Qarshi	242,6	131,1
Koson	15,7	125,6
Kitob	27,4	120,0
Mirishkor	11,2	136,7
Muborak	10,9	125,9
Nishon	17,0	138,5
Kasbi	23,9	81,5
Ko'kdala	3,7	165,8
Chiroqchi	31,0	115,4
Shahrisabz	0,7	107,1
Yakkabog'	23,8	110,7


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Qarshi shahri (3108,4 mlrd. so'm), Qarshi (242,6 mlrd. so'm) va Chiroqchi (31,0 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so‘m)




2024- yilning yanvar-dekabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishdan tashqari*) 3542,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,1 % ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 1875,6 mlrd. so‘m (o‘shish sur‘ati – 101,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 1666,4 mlrd. so‘m (o‘shish sur‘ati – 95,9 %)ni tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os‘ish sur‘atlari, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’i nazar qiymati.

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi,
mlrd. so‘mda**



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-dekabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 8844,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 10,0 % ga o‘ydi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 7836,6 mlrd.so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 111,8 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 88,6 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-dekabr)

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	8844,5	110,0
Qarshi sh.	3509,1	114,7
Shahrisabz sh.	762,4	114,8
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	254,8	114,4
Dehqonobod	53,7	134,2
Qamashi	405,1	154,8
Qarshi	770,8	114,2
Koson	486,2	68,4
Kitob	414,8	108,6
Mirishkor	103,4	116,8
Muborak	157,6	128,4
Nishon	67,8	103,2
Kasbi	121,3	56,7
Ko'kdala	18,8	87,2
Chiroqchi	181,1	122,0
Shahrisabz	143,6	124,1
Yakkabog'	343,0	121,6

2025- yil 1- yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2017 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 8 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2009 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Qamashi (154,8 %) ,Dehqonobod (134,2 %), Muborak (128,4 %) va Shahrisabz (124,1 %) tumanlarida kuzatildi.